



DAVLAT BOSHQARUVIGA LIBERAL YONDASHUV VA SHAXS ERKINLIGI
MUVOZANATI

Boygaziyev Tulqin Inatullayevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: bojgaziyevtulkin@gmail.com

Tel: +99888 190 83 83

<https://orcid.org/0009-0003-1275-9700>

Annotatsiya:

Ushbu matnda zamonaviy falsafiy munozaralarda davlat va jamiyat boshqaruvi, siyosiy hokimiyatning legitimligi va shaffofligi hamda islohotlar muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar:

Davlat boshqaruvi, siyosiy hokimiyat, legitimlik, shaffoflik, fuqarolik jamiyati, elektron hukumat, davlat mafkurasi, liberalizm, utopiya.

Аннотация:

В данной статье в контексте современных философских дискуссий анализируются проблемы государственного и общественного управления, легитимности и прозрачности политической власти, а также вопросы реформирования.

Ключевые слова:

Государственное управление, политическая власть, легитимность, прозрачность, гражданское общество, электронное правительство, государственная идеология, либерализм, утопия, дистопия

Abstract:

This paper analyzes the issues of state and public governance, the legitimacy and transparency of political power, and reform problems within the context of contemporary philosophical debates.

Keywords:

State governance, political power, legitimacy, transparency, civil society, e-government, state ideology, liberalism, utopia, dystopia.

Zamonaviy falsafiy munozaralarda saylovlarni tashkil etish va o'tkazish, siyosiy hokimiyatning qonuniyligi va shaffofligini ta'minlash, siyosiy partiyalar va harakatlar faoliyati, plyuralizm va siyosiy raqobatni ta'minlash, siyosiy hokimiyat mavqei, uning maqsad va vazifalari jamiyat talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan islohotlar muammolari ham muhokamalar markazidadir.

Davlat organlari va idoralarining amaliy faoliyati borasida ham falsafiy qarashlarning keng to'liqliniga duch kelish mumkin. Davlat hokimiyati vakolatlarning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida bo'linishi, ularning o'zaro hamkorligi va muvozanatini ta'minlash, Davlat organlari va muassasalarining ta'sir chegaralari, ularning davlat siyosatini



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



shakllantirish va amalga oshirishdagi roli, hukumatning turli darajalari o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammolari zamonaviy falsafiy qarashlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy rahbarlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli va ta'siri, muayyan davr mobaynida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga ta'siri, siyosiy rahbarlarning qonuniyligi va javobgarligi masalalari, fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish usullari va mexanizmlari, ularning davlat qarorlarini qabul qilishga ta'siri, fuqarolik jamiyati institutlarining vakolatlari, harakatlari va samaradorligi, ularning davlat organlari faoliyati ochiqligi va hisobdorligini ta'minlashda tutgan o'rni ilmiy-falsafiy tahlil va tadqiqotlar tarkibidan borgan sari kengroq joy olmoqda.

“Zamonaviy falsafiy qarashlar orasida davlat mafkurasi va siyosati masalasi ham konseptual mavqega ega” [1, 2010]. Chunki davlat mafkurasini shakllantirish va tarqatish, uning ijtimoiy ong va xulq-atvorga ta'siri, turli sohalarda (iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlatning tashqi siyosati, uning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi, xalqaro jarayon va hodisalarning davlat ichki siyosatiga ta'siri, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash, milliy xavfsizlikni ta'minlash, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish masalalari zamonaviy notinch dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bularning barchasi yuzasidan kelajakni falsafiy mushohada qilish davrning muhim talabi bo'lib bormoqda.

Keyingi yillarda ko'plab mamlakatlar xalqaro aloqalarida siyosiy munosabatlar hukumatlar darajasida radikallashayapti. Erkin falsafiy qarashlarni siyosiy bosim ostiga olish, fuqarolar erkinligini davlat siyosiy irodasi belgilagan me'yorlarga moslashtirish, yoshlar mas'uliyati va vatanparvarligini ham shunday qoidalar asosida qoliplashtirish, fuqarolarning siyosiy faolligini chegaralash amaliy siyosatda borgan sari kengayib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Demak, amaliy siyosatda nafaqat davlat institutlarini tashkil etish va ishlatish, balki ularning fuqarolar, siyosiy partiyalar, turli boshqaruv tarmoqlari, xalqaro tashkilotlar va siyosiy jarayonlarning boshqa subyektlari bilan o'zaro bog'liq ravishda hamkorligini ta'minlashdagi ilg'or o'zgarishlarga chuqur e'tibor qaratilishi kerak.

Jamiyat boshqaruvi aslida amaliy hayot tamoyillariga ko'ra, umumiy maqsadlarga erishish va ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilish uchun turli davlat institutlari va guruhlarini faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayoni, deyish mumkin. U davlat, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlovchi mexanizmlarni qamrab olib, real jarayonlarda asosan davlat tomonidan boshqariladi.

Jamiyat boshqaruvida fuqarolarni muhim qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish, bu jamoatchilik maslahatlashuvlari, so'rovlar, referendumlar va to'g'ridan-to'g'ri demokratiyaning boshqa shakllari, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal qilish va hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydigan jamoat tashabbuslari va boshqa tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash masalalari bilan bog'liq bo'lib, davlat idorasini amalga oshirishga falsafiy mazmun beradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Ayni vaqtda davlat boshqaruvi, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik tashabbuslarni ilgari surish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun NNTlarning davlat organlari va xususiy sektor bilan o'zaro hamkorligi ijtimoiy mentalitetni davr talablariga muvofiq yangilash nuqtai nazaridan muhim falsafiy mavzu bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvining falsafiy tahlillarida davlat boshqaruvining davlat va jamoat institutlari faoliyati ochiqligini ta'minlashi, jamoatchilik bilan maslahatlashish va axborotdan foydalanish, fuqarolarni qarorlar loyihalaridan xabardor qilish va ularga muhokamada ishtirok etish imkonini yaratish, ochiqlik va javobgarlikni oshirish uchun elektron hukumat kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish masalalari ham keng o'rin egallaydi.

Haqiqatan ham hozirgi vaqtda elektron hukumat, jamoatchilik muhokamasi, ovoz berish va murojaat qilish uchun onlayn platformalar kabi yangi uslubiy yondashuvlarning joriy etilishi davlat xizmatining samaradorligi va undan foydalanish, fuqarolar fikrini tezroq, kengroq, aniqroq to'plash, ma'lumotlarni tahlil qilish va yanada oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Shunga ko'ra, "davlat boshqaruvi tushunchasi zamirida hokimiyat (suverenitet) va uning qonuniyligi (legitimligi) tabiati haqidagi falsafiy munozaralar hozirda ham faol davom etmoqda" [2, 704 -b]. Uning doirasida esa davlat boshqaruvining axloqiy asoslari davlat va fuqarolarning o'zaro ma'naviy majburiyatlari, davlat institutlari faoliyatida ustuvorlik qilishi kerak bo'lgan fazilatlar, umumiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar, fuqarolarning siyosiy jarayonda qanday ishtirok etishi, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyati tahlillariga e'tibor oshmoqda. Demokratik qadriyatlar va amaliyotlarni dunyoqarash yoki madaniyatga aylantiruvchi ijtimoiy xususiyatlar va fuqarolik ishtirokining ma'nosi, shaxsiy erkinlik va huquqlarni jamiyat tartibi va umumiy manfaatlar talablari bilan muvozanatlash masalalarini tadqiq etish kuchaymoqda. Fuqarolarning shaxsiy hayotiga davlat aralashuvining chegaralari va shaxsiy avtonomiyani himoya qilish, inklyuzivlik va tenglik tamoyillari, davlat boshqaruvining fuqarolar va davlat o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish funksiyalari haqida falsafiy yondashuvlar va munozaralar zamonaviy falsafiy tadqiqotlarning bevosita masalalari sifatida borgan sari rivojlanmoqda.

Shuni ham aytish kerakki, davlat boshqaruvining mumkin bo'lgan ideal shakllari (utopiyalar) va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida ogohlantirishlar (distopiyalar) haqida fikr yuritish falsafiy qarashlarda ilgari ham bo'lgan, hozir ham to'xtagan emas. Tomas Mor va T. Kampanellaning "Utopiya"si [3, 256 -b.]kabi klassik utopik asarlar qatorida Jorj Oruellning "1984" kabi [4, 320 -b.]distopik romanlari hokimiyat va ijtimoiy boshqaruvning tabiati haqida chuqur tushuncha beradi.

"Shunday yondashuvlardan biri liberalizmdir. Liberalizmning diqqatga sazovor xulosalaridan biri davlat va jamiyat taraqqiyotida davlatning fuqarolar hayoti va iqtisodiyotga aralashuvi cheklanganligi masalasidir" [5, 504 -b]. Bu masala davlat xizmatiga liberal qarashlarda quyidagicha namoyon bo'ladi:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Davlat davlat xizmatchisi timsolida oshkoralik va javobgarlik asosida, hokimiyatni suiiste'mol qilmaslik va korrupsiyaning oldini olish uchun shaffof va hisobdorlik bilan ishlashi kerak. Davlat xizmati xizmatchi yordamida uzluksiz modernizatsiya va samaradorlikni ta'minlashi, natijaga asoslangan boshqaruv tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi, bunda asosiy e'tiborni davlat organlari faoliyatining nou-xau yondashuvlari va samaradorligiga qaratishi zarur. Hukumat byurokreatiyasi qisqarishi, samaradorlikni oshirish uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirishi va byurokreatiyani kamaytirish darkor. Raqobat va xususiylashtirishda esa davlat xizmatlarining sifatini oshirishi va xarajatlarni kamaytirish uchun ayrim davlat va davlat xizmati funksiyalarini jamoatchilik institutlari yoki xususiylashtirish tarmoqqa berishi va shu bilan ijobiy raqobat muhitini joriy etish lozim.

Falsafiy va siyosiy tadqiqotlarda davlat xizmati yuzasidan qarashlarni umumlashtiruvchi yondashuvlardan yana biri konservativ nuqtai nazardir. Konservatorlar "Davlat boshqaruvida tartib, kuchli hokimiyat va ijtimoiy intizom ustuvor bo'lishi lozimligini himoya qilganlar"[6, 216 -b]. Davlat xizmati yuzasidan qarashlarda bu quyidagicha ifodalanadi:

barqarorlik va an'analarni saqlash, ya'ni an'anaviy davlat xizmatlari institutlarining barqarorligi va saqlanishini qo'llab-quvvatlash;

vatanparvarlik va el-yurtga xizmat mentaliteti, davlat xizmatchilari o'rtasida davlat va jamiyat manfaatlari birligi hamda vatanparvarlik tuyg'usiga kuchli e'tibor;

kuchli boshqaruvni ta'minlash, ya'ni idora organlari va jamiyat harakatlarida tartib va xavfsizlikni ta'minlash uchun kuchli hukumat tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash;

intizom va professionallik, ya'ni davlat xizmatchilari faoliyatida o'z kasbiy mas'uliyatini chuqur darajada bilish va belgilangan intizomning yuqori standartlariga rioya etishni ta'minlash.

Zamonaviy davlat xizmatini rivojlantirish asosan o'tgan asr faylasuf siyosatchilari qarashlarida keng mavzu sifatida qaralib, qator tamoyillarni oydinlashtirgan va davlat xizmatiga tatbiq etilishiga zamin hozirlagan. Bu tamoyillar orasida davlat xizmatchilarining kasbiy mahorati va maxsus bilimlarini oshirish, o'sib borayotgan davlat funksiyalari uchun bugungi kunda murakkablashib ketgan byurokreatik tuzilmalarni yaratish g'oyalari amaliyotda keng qo'llangan.

Hozirgi zamon siyosiy falsafiy yondashuvlarida davlat xizmati samaradorligi va shaffofligini oshirishga ko'proq urg'u berilmoqda. Bunda raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat-jamiyat sherikligi orqali xizmat ko'rsatish va unda nodavlat sektor ishtirokini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni oshirish va davlat xizmatida ilg'or tajribalarni qo'llash tendensiyalari keng yoyilgan.

Ushbu tendensiyalar turli mamlakatlarda davlat xizmatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos falsafiy-mafkuraviy va siyosiy-ma'naviy maqsadlarni aks ettiradi.

Zamonaviy tendensiyalarda bir qator tor doiradagi konseptual yondashuvlarni ham ko'rish mumkin. Masalan, "g'amxo'rlik etikasi" davlat xizmati mavzusida ijtimoiy va sog'liqni saqlash sohalarida g'amxo'rlik va o'zaro yordamga urg'u berishga qaratilgan. "Demokratik javobgarlik" g'oyasi davlat xizmatchilarining javobgarligini ta'minlash uchun boshqaruvda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ijtimoiy nazorat va fuqarolarning ishtiroki muhimligini ta'kidlaydi. "Global adolat" tarafdorlari esa iqlim o'zgarishi va inson huquqlari kabi global muammolar ta'sirida global adolat va davlat amaldorlarining mas'uliyati masalalarini ko'rib chiqadi.

Zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvining tizimli muammolarini falsafiy mushohada etish quyidagi muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Birinchi, bugungi kunda davlat hokimiyatining qonuniyligi (legitimligi) va shaffofligi nafaqat institutsional tuzilmalarga, balki jamiyat talablari va xalqaro munosabatlardagi keskin o'zgarishlarga (radikallashuv jarayonlariga) moslashish darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi, elektron hukumat hamda onlayn platformalarning joriy etilishi davlat va fuqarolar o'rtasidagi muloqotni jadallashtirdi. Bu jarayon fuqarolik jamiyati institutlari (NNT) faolligini oshirish, qarorlar qabul qilishda ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashning bosh omiliga aylandi.

Uchinchi, davlat boshqaruvining zamonaviy falsafiy tahlilida, ayniqsa liberalizm nuqtai nazaridan, davlatning shaxsiy hayot va iqtisodiyotga aralashuvini cheklash hamda inson huquqlari va ijtimoiy tartib o'rtasidagi muvozanatni saqlash eng dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Сагдуллаева Д. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. - Тошкент: ЎзМУ, 2010.
2. Фрэнсис Фукуяма: Угасание государственного порядка. -М.: АСТ, 2017. – 704 с.
3. Мор Т., Кампанелла Т. Утопия. Город Солнца. -М.: Родина, 2022. -256 с.
4. Джордж Оруэлл. 1984. -М.: Текст, 2022. -320 с.
5. Кваме Аппиа: Этика идентичности. -М.: Новое литературное обозрение, 2024. - 504 с.
6. Жозеф. де Местр. Рассуждения о Франции / Пер. с фр. Г. А. Абрамова, Т. В. Шмачкова. — М.: РОССПЭН, 1997. — 216 с.
7. Чиркин В. Сравнительное государствоведение: Учебное пособие. – Москва: Норма, 2023. – 448 с.
8. Тулкин, Бойгазиев. "Форобий фалсафасида билимларнинг турларга ажратилиши." *Философия и право* 25.2 (2023): 150-154.
9. Boygazyev, T., and A. Ochilov. "ABU NASR FOROBIYNING BOSHLANG'ICH BILIMLAR HAQIDAGI QARASHLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 39-43.